



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FAOLIYATI TARIXIDAN

Sharofova E'zoza Sherzod qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada temuriyzoda hukmdor Zahiriddin Muhammad Bobur va uning faoliyati tarixi, kichik satrlarda yoritib berildi. Bobur Mirzoning siyosiy jarayonlardagi faoliyati, Samarqand uchun olib borgan urushlari hamda adabiy merosi haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Andijon va Aksi, Umarshayx Mirzo, Samarqand taxti, Shayboniyxon, Boburiylar imperiyasi, Boburnoma, adabiy meros.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilda Andijonda tavallud topgan. Sohibqiron Amir Temurning pannevarasi bo'lgan Bobur o'z davrining buyuk shaxslaridan biri edi. Uning she'rlari, ruboiylari o'z vaqtida va hozir ham sevib o'qilmoqda.

Boburning otasi-Umarshayh Mirzo Farg'ona hokimi, onasi-Qutlug' Nigorxonim Mo'g'iliston va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning yoshligi Andijon va Axsida o'tgan hamda barcha temuriy shag'zodalar kabi saroyda ilmli kishilardan dars olgan. Tarixdan ma'lumki, otasi Umarshayxning fojeali o'limidan so'ng darhol hokimiyat Boburga topshirildi. Buning sababi esa Bobur oq qorani tanishi bilan Andijon hokimi etib tayinlanganligi va Andijonni uning nomi bilan ustozni Mavlono Qozi boshqarishi edi [Shamsutdinov R., 2010. 13-15-b.].

Bobur 12 yoshidayoq taxtga kelishi bilan unga ikki qarindoshi tog'asi va amakisi Sulton Ahmad Mirzo va Sulton Maxmudxonlar qarshilik qilar edi. Lekin, ularning xatti-harakatlari tez orada bartaraf etiladi. Zahiriddin Muhammad davlat ishlarini anchagina yo'lga qo'yib olgach, o'zining azaliy orzusi ya'ni poytaxti Samarqand bo'lgan Temuriylar davlatini qayta barpo etishni maqsad qilar edi. Shu yo'sinda



Bobur Mirzo Samarqandga bir necha bor yurishlar qildi va keyinchalik ma'lum sabablarga ko'ra tashlab ketishga majbur bo'ldi.

Shoh Boburning Samarqandga 1495-496-yillarda qilgan ikki marotaba yurishi muvaffaqiyatsiz tugadi. Keyinchalik, bu mag'lubiyatlar o'z g'alaba nashidasini olib keldi. Bobur Samarqandni uch bora, 1497-yil, 1500-yil, 1511-yillarda egallaydi. Boburning Samarqandni birinchi marta egallashi 7 oylik qamaldan amalga oshdi [Azimjonova, 1995. 37-b.]. Bu taxtda o'tirish unga uzoq vaqt davom etmadi. Andijonda taxt uchun bo'lgan muammolar, beklarning o'zaro fitna-fasodlari Boburni Samarqandni tark etishga majbur etdi.

Samarqandni Bobur ikkinchi marta egallashi 1500-yilda asosan jangsiz, shahar aholisining unga darvozalarni ochib berishi natijasida bo'ldi. Bobur 240 kishi bilan shaharga tunda hujum qiladi va tong gacha shahar egallanadi. 1501-yildagi Shayboniyxon bilan urushi natijasida Samarqandni yana tark etadi.

Uchunchi marta Samarqandni egallanishi 1511-yilda Eronliklar bilan birlashgan qo'shini bilan hujum qiladi va egallaydi [Shamsutdinov R. 2010. 16-18-b.]. Lekin, xalqning noroziligi natijasida yana bu ajib maskan Shayboniyxonga tashlab, chiqib ketiladi

Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur so'fiy – Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, „Boburnoma“ asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va choraszizlikdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi [www.wikipedia.org. internet sayti].

Shu tariqa Bobur 1504-yillarda Movarounnahrni tark etib, 1504-yilda Balxga, undan 1526-yilda Hindistonga tomon yurishlarini qilib, o'z ona yurtini tark etadi. Hindistonda yirik bir Boburiylar davlatiga asos solgan Bobur har bir xalq uchun odil qarorlar chiqarishga harakat qildi. Hindistondagi 332-yillik faoliyati tarixiga ega bo'lgan Boburiylar imperiyasi shu tariqa tashkil topdi [Mashrabov., 1997. 51-b.].

Adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Bobur har doim _____ olim-u fozillar davrasida bo'ldi,



xususan, ijod ahliga, kasb-u hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo‘lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Boburning shox asari Boburnoma 1493-1529-yillardagi Movarounnahr, Xuroson, Hindistondagi siyosiy, iqtisodiy umuman olganda memuar asar sifatida har bir jabhani qamrab oladi. Hozirda Boburning 119 g‘azali, 209 ruboysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan[Vohidov R. 2000. 79-80-b.]. Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yil 26-dekabrda Agrada 47 yoshida vafot etdi. Uning vasiyatiga muvofiq qabri Kobulga olib borib, dafn etildi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, temuriyzoda Bobur Mirzo o‘z davrining yetuk sarkardasi, hukmdori, tarixchi va adabiyotshunosi bo‘lgan. O‘zining azaliy orzusi bo‘lgan bobokaloni sohibqiron Amir Temur davlatini poytaxt Samarqand misolida tiklash uchun bir necha bor harakatlarni amalga oshirgan. Faoliyati davomida ko‘plab janglarni o’tkazgan Bobur o‘z ona yurtida bo‘lmasa, o‘zga yurt Hindistonda o‘z davlati, Boburiylar imperiyasiga asos sola oldi. Zahiriddin Muhammmad Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Bobur ijodida, xususan, she’riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dil-dildan qumsash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yor-u diyor sog‘inchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona illatlaridan nola badiiy tahlil etiladi.



Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimjonova S. Zahiriddin Muhammad Bobur. Maqolalar to‘plami. Toshkent. 1995.
2. Mashrabov Z., Shokarimov S. Asrlarni bo‘ylagan Bobur. Toshkent. 1997.
3. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Toshkent. 2000.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh, Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). 2-kitob. Toshkent. 2010.
5. www.wikipedia.org. internet sayti